

BAHODIR SALIXOV

**PEDAGOGIK VA
IJROCHILIK
AMALIYOTLARI**
(Klarnet mutaxassisligi uchun)



Toshkent-2006

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi
Uslubiyat va axborot respublika markazi
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

BAHODIR SALIXOV

PEDAGOGIK VA IJROCHILIK
AMALIYOTLARI

(Klarnet mutaxassisligi uchun)

Oliy ta‘lim muassasalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Toshkent-2006

Mas'ul muharrir : A.M. Mansurov, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori.

Taqrizchilar: V.L.Melkomini, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori,

B.J.. Matyoqubov, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

Salixov Bahodir

“Pedagogik va ijrochilik amaliyotlari”

(klarnet mutaxassisligi uchun)

Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma.

Mazkur o'quv qo'llanma musiqa san'ati va madaniyat sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida damli cholg'u yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali o'qituvchi mutaxassislarni tayyorlashga va talabalarni ijrochilik mahoratini oshirishga mo'ljallangan.

Данное учебное пособие предназначено для высших образовательных учреждений в области музыки, культуры и рекомендуется при подготовке высококвалифицированных кадров—педагогов, исполнителей на духовых инструментах.

This work is recommendad as a school-book for teachers of institutes of higher education of music and culture. It will help to educate well – qualified perfomers on wind instruments.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasining Ilmiy-uslubiy Kengashi, O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi huzuridagi Respublika metodika va axborot markazi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Muallifdan

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistraturasida tahsil olayotgan talabalar uchun pedagogik va ijrochilik amaliyotlarini o'zlashtirishga mo'ljallangan.

YUqori malakali ijrochi-musiqachilarni tayyorlash bilan birga muhim vazifalardan biri – bu akademik litsey, kollej va bolalar musiqa maktablari uchun mutaxassislik fanidan malakali o'qituvchilarni tayyorlashdir. Bu borada pedagogik amaliyot kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Qo'llanmada pedagogik amaliyotni o'zlashtirishga oid talablar va klarnetda chalishni o'rgatish o'quv-uslubiy tavsiyalari berilgan. T.Byom tizimidagi klarnetni o'zlashtirishda boshlang'ich mashqlar, gamma va etyudlardan namunalar berilgan. Fransuz tizimidagi klarnetni applikatura muammolarini o'rganish uchun muallif tomonidan yozilgan maxsus mashqlar va etyudlar kiritilgan. Ijrochilik texnikasini yanada rivojlantirish maqsadida klarnet ijrochiligi amaliyotida keng o'rin olgan etyudlaridan namunalar, hamda o'zbek kompozitorlarining klarnet uchun yozgan asarlari kiritilgan. O'quv- qo'llanmada melizmlar(bezaklar), ularni turlari va ijro echimlari batafsil misollarda keltirilgan. SHuningdek klarnet ijrochiligi amaliyotida qo'llanadigan zamonaviy ijro usullari ham o'rin olgan. Talabalarni ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish va konsert repertuarlarini boyitish maqsadida qo'llanmaga zamonaviy kompozitorlarning klarnet uchun yozilgan asarlari kiritildi. Ular ichida respublika va xalqaro tanlovlar dasturiga kiritilgan asarlar ham mavjud. Ushbu o'quv qo'llanma o'qituvchi kadrlarni tarbiyalash va ularning ijrochilik mahoratini yanada oshirishda, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash milliy dasturini amalga oshirilishiga hissa qo'shadi, degan umiddaman.

I bo‘lim

Pedagogik amaliyot – maqsad va vazifalar

Pedagogik amaliyot – mutaxassis-o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan amaliyot turidir. Oliy ta‘lim muassasalari mutaxassislikdan yuqori malakali ijrochi-musiqachilarni tayyorlash bilan birga oldida turgan muhim vazifalardan biri bu mutaxassislik fanidan zamonaviy o‘qitish uslubiyoti talablariga javob beradigan, kasbiy, ijodiy-amaliy an‘analarni yanada rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lgan malakali o‘qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo‘yilgan. Konservatoriyaning damli cholg‘ular kafedrasini bitirgan talabalarga orkestr artisti, ansambl ijrochisi va yakkanavoz malakasi bilan birga o‘qituvchi kasbi ham beriladi. Ularning ko‘pchiligi o‘z kasblarini akademik litsey va kollejlarda o‘qituvchilik faoliyatiga bag‘ishlaydilar. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar o‘qituvchilik amaliyoti ko‘nikmalarini mutaxassislik sinfida o‘zlashtirish orqali o‘rganadilar.

Pedagogik amaliyotning asosiy vazifasi – talabalarni o‘qituvchilik ish faoliyatiga akademik litsey va kollejlarda orqali tayyorlash, mustaqil ravishda o‘qituvchilik kasbini boshlash uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar, tavsiyalar, o‘qish jarayonida olgan bilimlarini amalda qo‘llashni va ilmiy-uslubiy ishlarga qiziqish uyg‘otishda ko‘mak berishdan iborat.

Talabalar pedagogik amaliyotini o‘quv jarayoni davomida uzviy va uzluksiz ravishda o‘zlashtirgan holda quyidagi vazifa va talablarni bilishlari kerak :

- bolalar musiqa maktablari, akademik litsey va kollejlarni o‘quv-pedagogik dasturini (repertuarini) bilishi, birinchi bosqich - boshlang‘ich sinflar (1-4 sinf) ikkinchi bosqich – o‘rta sinflar (5-9 sinf) uchinchi bosqich – litsey va kollejlarda (1-3 kurs);

- o‘quvchining musiqa bo‘lgan qobiliyatini to‘g‘ri aniqlash (eshitish qobiliyati, ritm, xotira);

- cholg‘u to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot berib, uning tarixi, tuzilishi, sozlanishi va ijro imkoniyatlari haqida o‘quvchilarga tushintirib berish;

- birinchi mashg‘ulotlardan boshlab o‘quvchini musiqa cholg‘usini to‘g‘ri ushlashga, boshini, tanasini, qo‘l va barmoqlarni to‘g‘ri tutishga, lab apparatini to‘g‘ri qo‘yishga va ijrochilik nafasini to‘g‘ri olishga ahamiyat berish;

– cholgʻuda ijrochilik texnikasini rivojlantirish turlarini (barmoq texnikasi, til, lab apparati, ijrochilik nafasi) muntazam ravishda uslubiy toʻgʻri yoʻlga qoʻyib ish olib borishni;

– asarlarni cholgʻuda ijro etib, oʻquvchilarga har-xil ijrochilik usullarini – murakkab hisoblangan - glissando, frullato, vibrato, qoʻsh stakkato (dvoynoe stakkato) kabi ijrochilik usullarini amalda koʻrsatib berishi;

– musiqa asarlarini ijro uslubini toʻgʻri tahlil qilib, uning janri, shakli va badiiy jihatlarini oʻquvchilarga tushunarli qilib yoritib berishni;

– oʻquvchiga uyga berilgan vazifalarni mustaqil ravishda oʻzlashtirishi uchun mashgʻulotlarni toʻgʻri, izchil, muntazam va samarali tuzishni oʻrgatish;

– oʻquvchi bilan oʻtilgan har-bir darsni toʻgʻri tahlil qilib, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf qilish yoʻl-yoʻriqlarini koʻrsatib berish;

– har-bir oʻquvchi uchun uning qobiliyati, isteʼdodi, bilim darajasi va darslarni oʻzlashtirishini inobatga olib, oʻqish jarayonining har bosqichiga shaxsiy oʻquv-ish rejasini tuzishni;

– oʻqtuvchilik va ijrochilik amaliyotlariga oid yozilgan zamonaviy ilmiy – uslubiy ishlarni, cholgʻular uchun yaratilgan yangi asarlarni oʻrganib, ularni oʻqitish jarayonida keng qoʻllashni joriy qilishi lozim.

Pedagogik amaliyotni-tashkil etish

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlangan oʻquv reja boʻyicha pedagogik amaliyot konservatoriyatining bakalavriat yoʻnalishi boʻyicha 4 -kursning 7-8 semestrlarida, magistratura yoʻnalishi boʻyicha esa 1-2 kurslarni 1-4 semestrlarida oʻzlashtiriladi.

Talabalarning pedagogik amaliyot mashgʻulotlarini tashkil etish konservatoriyaning damli cholgʻular kafedrası va amaliyotlar boʻlimi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyot oʻtkaziladigan taʼlim muassasasi aniqlangandan soʻng kafedra quyidagi ish rejasini tuzadi:

- semestrlar boʻyicha amaliyot ish rejasi jadvali;
- texnik sinovlar (gamma va etyudlar), akadem konçertlar, ochiq darslar va Davlat Attestasiyasini oʻtkazish jadvali.

Pedagogik amaliyot o'quv-uslubiy ish rejasi kafedra yig'ilishida muhokama qilinib tasdiqlanadi. Pedagogik amaliyot mashg'ulotlari akademik litseylar va musiqa kollej qoshida amalga oshiriladi.

Damli cholg'ular kafedrası pedagogik amaliyot o'tadigan talabalarni mutaxassisliklari bo'yicha ularga rahbarlik qiluvchi litsey va kollejlarning o'qituvchi-maslahatchilarga (konsul'tant) taqsimlaydilar.

O'qituvchi-maslahatchilar litsey va kollej o'quvchilarini mutaxassislik bo'yicha amaliyot o'tuvchi talabalarga biriktiradilar.

Pedagogik faoliyatga tayyorlashda samarali natijalarga erishish uchun o'qitish uslubini egallagan, tajribali o'qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi-maslahatchi talabaga o'quvchi bilan birinchi mashg'ulotlarni boshlashda, unga o'quvchini ijrochilik holatini (ispolnitel'skaya postanovka) qanday to'g'ri qo'yishni – ya'ni bosh, tana, qo'llar, oyoqlar, cholg'uni to'g'ri ushlashni, tilni tovush chiqarishdagi holati va ijrochilik nafasini to'g'ri qo'llash usullarini batafsil tushuntirib, amalda ko'rsatib berishi kerak.

Talaba har semestrda o'quv reja bo'yicha o'quvchi bilan ochiq dars o'tkazib, qo'yilgan quyidagi talablarni amalda ko'rsatib berishi kerak:

- o'quvchi uchun o'quv dasturni to'g'ri tanlab berishni;
- o'quvchi bilan mustaqil ravishda nazariy va amaliy mashg'ulot o'tkazishni;
- cholg'uda ijrochilik texnikasini rivojlantirish vositalari – gamma va etyudlar ustida ishlash uslubini;
- har-xil janrda yozilgan musiqa asarlarini ustida ishlash asoslarini namoyish qilishi kerak.

Davlat Attestasiyasi - damli cholg'ular va musiqiy pedagogika kafedralarining birgaligida, Davlat Attestasiyasi komissiyasi raisi va a'zolari tomonidan qabul qilinadi. Talabalar butun o'quv jarayonida olgan nazariy va amaliy bilimlarini savol-javob (kollokvium) hamda litsey, kollej o'quvchilari bilan o'tilgan amaliy mashg'ulotlarni cholg'ularda ijro orqali ochik dars sifatida namoyish etadilar.

Magistraturada tahsil olayotgan talabalar bakalavriatda pedagogik amaliyotdan olgan bilimlarini yanada mukammal o'zlashtirib, mustaqil ravishda litsey va kollej o'quvchilari bilan mutaxassislik fanidan o'qituvchilik faoliyatini boshlashlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik fani professor-o'qituvchilari magistraturada o'qiyotgan, pedagogik faoliyatiga qizikayotgan, bilim doirasi keng va ijrochilik darajasi yuqori bo'lgan talabalarni o'z sinflariga assistent sifatida jalb qilishlari mumkin. Ular boshlang'ich kurs talabalari bilan o'qituvchi nazorati ostida, hamda mustaqil ravishda mashg'ulotlar olib borib, talabalarni sinov va attestasiyalarga tayyorlashlari mumkin. Magistraturani bituruvchi talabalar mutaxassislik fani o'qituvchisi rahbarligida pedagogik va ijrochilik amaliyotlariga tegishli mavzuda referat yozadilar.

Klarnet cholg'usining rivojlanish tarixi

Zamonaviy klarnet cholg'usi tarihi va uning rivojlanish negizida Evropa davlatlarning xalqlari orasida keng tarqalgan xalq cholg'ularining ahamiyati katta bo'ldi.

O'rta asrlarda Evropada daraxtdan yasalgan naylar, surnaylar keng qo'llana boshlandi. Bu cholg'uning tuzilishi bir-biriga o'xshaganligi tufayli Evropa xalqlarning orasida ularning nomlari bir-biriga yaqin bo'lgan.

Masalan, Fransiya – “shalyumo”(fransuz tilida chalo'meo' – nay, surnay), Germaniyada – “shalmey” nomi bilan atalar edi. SHalyumo - bu silindrlilik surnay bo'lib, u 7-9 teshikchilardan iborat, 7-8 tasi uning oldi tomonida, bittasi esa uning orqa tomonida joylashgan. Bu oddiy cholg'uda tovush chiqarish uchun qamishdan yasalgan trostdan (tildan) foydalanib, o'rnatilgan trost tebranib, ma'lum balandlikda tovush chiqara boshlaydi. Bu “shalyumo” ning diapazoni taxminan bir oktavani tashkil qilgan.

XVII asrning oxirlarda taniqli nemis musiqa cholg'ulari ustasi Nyurnbergli Iogan Kristof Denner (1655-1707) o'zining birinchi klarnetini ixtiro qiladi.

Bu shalyumoning o'zgartirilgan turi bo'lib, yangi cholg'uda yogochdan yasalgan tumshuqsimon mundshtuk qo'llanib, unga qamishdan yasalgan til ip bilan bog'lanar edi. Birinchi klarnetning uzunligi 50 sm.ni tashkil qilib, u “DO” soziga to'g'ri keladi. Unda 8 ta teshikcha bo'lib, Denner klarnetning yuqori qismiga metaldan yasalgan ikkita klapanlarni (lya, si) o'rnatadi. Izlanishlar jarayonida klarnet ustalar tomonidan yanada takomillashtirila boshlandi. Bu borada nemis musiqa cholg'ulari ustalaridan B.Frans (1697-1766), I.Beer (1744-1811), I.Myuller (1785-1855), K.Berman (1811-1885) larning klarnet cholg'usini yanada takomillashtirishga qo'shgan hissalari katta bo'ldi.

Klarnetni keyingi rivojlanish tarixi bevosita mashhur nemis fleytachisi, ixtirochi va cholgʻu ustasi Teobol'd Byom (1794-1881) nomi bilan bogliqdir. U nemis tizimidagi klarnetdan farq qiluvchi, yangi klarnetni ixtirochisi sifatida tanildi. Bu klarnetlar T.Byom tizimidagi klarnet deb atala boshlandi. XIX asrning 40 - yillarida Fransiyalik Ogyust Byuffe firmasi, birinchi T.Byom klarnetlarni ishlab chiqara boshladi. Keyinchalik ushbu klarnetlarni "fransuz tizimidagi" klarnetlar deb atala boshladilar.

Fransuz tizimidagi klarnetlar (T.Byom) applikatura masalasida va klapanlarning tuzilishida nemis klarnetlardan ancha farq qiladi. Ayniqsa jimjiloq barmoqlar bilan klapanlarni harakatga keltirib chalinadgan notalarni ijro etishida, bu barmoqlarning har biri uchta-to'rttadan klapanlarni harakatga keltiradi. Bu o'z navbatida ijrochilar uchun qulaylik tug'dirib, barmoq harakatining texnikasini rivojlantirishga yaxshi sharoit yaratadi.

Fransuz tizimidagi klarnetlarning yana bir ustunlik tomonlari, bu tovushning yumshoq chiqishi, tiniq sozi va barcha registlarda bir tekisda ijro etilishi va ijro jarayonining erkinligi va engil talaffuzi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bu engilik yuqori registrdagi tovushlarni va intervallarni ijro etayotganda namoyon bo'ladi.

T.Byom klarnetini yanada takomillashtirishiga Fransiya, Bel'giya va Angliya musiqa chulgʻu ustalarining, hamda o'tmishdagi mashhur ijrochi-klarnetchilarning qo'shgan hissalar juda katta bo'ldi.

Zamonaviy klarnet besh qismdan iborat:

1. Mundshtuk
2. Bochok
3. YUqori qism
4. Pastgi qism
5. Rastrub (og'iz)

Hozirgi paytda T.Byom tizimidagi klarnetlar dunyoning ko'pgina davlatlarida sevimli va keng tarqalgan damli cholgulardan biridir. O'qitish jarayonida va simfonik orkestrlarda quyidagi klarnetlar qo'llanadi:

- Klarnet B (si β)
- Klarnet A (Iya)
- Klarnet Es (mi β)
- Bas klarnet B

Dunyoda eng mashhur T.Byom tizimidagi klarnetlar Fransiyaning O.Buffet, G.Selmer, Leblang, Yaponiyaning YAMAHA firmalarining cholg'ulari hisoblanadi.

Klarnet uchun pedagogik amaliyotdan o'quv-uslubiy tavsiyalar

Keyingi yillar tajribasi shuni ko'rsatdiki, bolalarning jismoniy tomonidan ancha tez rivojlanishi tufayli damli cholg'ularda o'qitishni bir – ikki yil oldin boshlash mumkin. Hozirgi paytda 9-10 yoshga to'lgan, jismoniy tomondan sog'lom, tabiiy eshitish qobiliyatiga, ritm va musiqali xotiraga ega bo'lgan bolalarni klarnet cholg'usida o'qitish uchun tavsiya qilinadi. Ushbu cholg'uga o'quvchi tanlashda uning tish, lab, barmoqlar va ko'krak qafasini tuzilishiga, ayniqsa pastgi tishlarga ahamiyat berish kerak, ular bir tekisda bo'lishi shart, chunki ijro jarayonida pastki lab tishning ustiga bir oz qayirilgan holda labga zich bosilib turadi. Tishlar notekis va qiyshiq bo'lsa, labni kesib og'riq berishi mumkin. Klarnetda chalish uchun pastgi lab bir muncha to'laroq bo'lgani ma'qul, chunki trostni labga qo'yganda u yostiqcha vazifasini bajarib elastik holatda bo'lishi kerak.


Tajriba shuni ko'rsatadiki, pastki labi to'laroq bo'lgan ijrochilarning tovushi mayin, ohangli va boy tembrga ega bo'ladi.

Barmoqlarning tezligi va chaqqonligi klarnetda ijro texnikasining asosidir, shuning uchun barmoqlar, ayniqsa jimjiloq barmoqlar, uzun va quvvatli bo'lishi maqsadga muvofiqdir.


Amaliy mashg'ulotlar o'tishdan oldin, o'qituvchi o'quvchiga klarnetning tuzilishi, undan to'g'ri foydalanish va saqlash qoidalari bilan tanishtirishi lozim. Birinchi mashg'ulotlardan boshlab o'quvchining tanasini bir tekista tutishiga, boshini to'g'ri holatda ushlab, ya'ni boshni juda baland ko'tarmasdan yoki pastga qaratmasdan, qo'llar esa tanaga yopishib turmasdan bir oz ko'tarilgan holda bo'lishiga ahamiyat berish kerak.

O'qituvchi o'quvchining klarnetda birinchi tovush chiqarish jarayonida, uning lab apparatini to'g'ri holatda bo'lishini, mundshtukni to'g'ri qo'yilishi va tovush chiqarishda tilning aniq talaffuzini kuzatib borishi kerak. Tovushni bir tekisda chiqishiga, intonasiyaning aniqligiga va nafasni to'g'ri olishiga katta ahamiyat berish zarur. Klarnetda birinchi mashqlarni ijro etishda engil trostdan foydalanish tavsiya qilinadi.

Klarnetda birinchi tovushni chiqarishda birinchi oktavadagi “sol” notasidan boshlash kerak.



Chap qo‘l uchun boshlang‘ich mashqlar



Chap va o‘ng qo‘l uchun boshlang‘ich mashqlar



Lab apparatining ishlash xususiyati


Klarnetda tovush chiqarish va chalish jarayonida ijrochining lab apparati murakkab vazifani bajaradi. Yuqori va pastgi lablar tishlar bilan birgalikda mundshtukni ushlab turishni va havoni chiqib ketmasligini taʼminlaydi. Klarnetda ijro paytida trostni tebranishini asosan pastgi lab bajaradi hamda trostni tishga tegishidan saqlab turadi.

Lab apparati kuchli, mustahkam, chidamli va elastik boʻlib rivojlanishini amalga oshirishda, muntazam ravishda har kuni davom etadigan tovushlarni ijrosida, mashqlarni intervallarda, gamma, arpedjio, septakkord va etyudlarni ijro etish yoʻllari bilan erishish mumkin.

Qoʻyidagi mashqlarni ijro etish tavsiya qilinadi:

The image displays two sets of musical exercises for clarinet. The first set consists of five staves of music in C major, featuring various dynamic markings (p, ff, mf, f, p) and articulation marks (accents, slurs). The second set consists of four staves of music in B-flat major, featuring eighth and sixteenth note patterns with slurs.

Bu mashqni ijro qilishda duodesima klapanini ochmasdan qo'yidagi tovushlarni ijro etish tavsiya qilinadi:



Ijrochilik nafasi

Damli cholg'ular ijrochiligida qo'llanadigan ijrochilik nafasi, oddiy nafas olishdan tubdan farq qiladi. Tabiiy holatda nafas olish va nafas chiqarish jarayoni beixtiyor, birtekisda kechib, nafas olish va chiqarish asosan burun orqali amalga oshiriladi. Ijrochilikda esa nafas olish tez va qiska bo'lib, nafas chiqarish sekin va uzoq davom etadi. Nafas asosan og'iz orqali olinadi va chiqariladi.

Klarnetda ijro jarayonida to'g'ri nafas olish, undan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchiga birinchi mashg'ulotlardan boshlab to'g'ri nafas olishni va nafas chiqarishni amalda ko'rsatib, qanday nafas olish turlari borligini tushuntirib berishi kerak.

Nafas olishning uch xil turlari mavjud:

Ko'krak, qorin va aralash yoki ko'krakqorin nafasi.

1. **Ko'krak nafasi:** ko'krak bilan nafas olganda, qovurg'alar ko'tarilib, ko'krak qafasi va o'pkalar kengayadi. Nafas chiqarilganda ko'krak va o'pkalar qisqarib o'z holatiga qaytadi;

2. **Qorin nafasi:** Nafas olganda pastgi qovurg'alar kengayib diafragma pastga tushadi va qorin bo'shlig'i to'lib bir oz do'ppayib chiqadi, o'pkalar kengayib havo bilan to'ladi;


3. **Aralash yoki ko'krakqorin nafasi:**

Nafasning bu turi oldingi ikki nafasning birlashuvidan kelib chiqqan. Bunday nafas olish jarayonida ko'krak qafasi va diafragma birday faol qatnashadi. Bu xildagi nafas olish usuli ijrochilar uchun eng qulay va samarali bo'lib, ijro amaliyotida shu nafas olish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klarnetda ijro jarayonida nafas olishda mundshtukni labdan olmasdan, ogʻizning burchaklaridan tez va shovqinsiz nafas olishga harakat qilish kerak. Ayrim ijrochilar ijro paytida nafas chiqarayotganda mundshtukni atrofidan pishillatib eshtilar darajada havo chiqaradilar. Bu holat musiqa asarini ijro qilayotganda ortiqcha shovqun tugʻdirib, ijroga xalaqit beradi, oʻqituvchining vazifasi bunday kamchilikni bartaraf etishni oʻquvchiga tushuntirishi kerak.

Ijrochilik nafasini rivojlantirish uchun har kuni davom etadigan tovushlardan tuzilgan maxsus mashqlarni ijro etish lozim. Bu mashqlar nafaqat ijrochilik nafasini hamda lab apparatini mustahkamlash uchun va tovushning sifatini, intonatsiyasini yaxshilash uchun foydasi katta.

Quyidagi mashqlarni ijro etish tavsiya qilinadi:



Klarnetda murakkab hisoblangan yana bir nafas olish usullaridan biri bu – **uzluksiz nafas olish**. Bunday nafas olish goboy cholgʻusida, ayniqsa oʻzimizning milliy cholgʻular - surnayda ijrochilarimiz mohirona qoʻllab kelishmoqda. Uzluksiz nafas olish usulining mohiyati bu ijro jarayonida nafas chiqarishni toʻxtatmasdan, burun orqali nafas olish yoʻli bilan amalga oshiriladi. Bu usulni amalga oshirish uchun, chiqarilayotgan havoni bir qismini ogʻiz boʻshligiga egʻib, nafasni chiqarish bilan bir vaqtni oʻzida burun orqali tez nafas olish kerak. Bu albatta murakkab jarayon, bir vaqtda ham nafas olish va nafas chiqarish. Uzluksiz nafas olish usulini muntazam ravishda uzoq vaqt mashq qilish orqali egallash mumkin. Bu usulni egallagan ijrochilar keng imkoniyatlarga

ega bo‘lib, musiqa asarlarning uzun jumllarini uzluksiz bir nafasda ijro etishlari mumkin.

Tovush chiqarishda tilning ahamiyati

Klarnet ijrochiligida tilning chaqqon harakati tovush chiqarishda va ijrochilik texnikasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Nafas chiqarib tovush olishda til o‘ziga xos “klapan” vazifasi bajaradi.

Tovush chiqarishda tilning “tu”, “ta”, “du” talaffuzidan foydalanib, uning qattiq va yumshoq ifodalanishi tilning zarbiga (atakasiga) bog‘liqdir. Qattiq zarba tilning labdan va trostdan tez keskin va engil orqaga qaytish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Yumshoq zarba ham shu holatda bajariladi, lekin tilning orqaga qaytishi bir oz bo‘shroq va sokin kechadi.

O‘quvchilar bilan birinchi mashqlarni o‘tkazishda tilning qattiq zarbidan (atakasidan) foydalanish tavsiya etiladi.

Tilning yuqorida qayd qilingan tovush chiqarish usullari klarnetda har-xil shtrixlarni ijro etishga imkon beradi.

Bular: DETASHE, STAKKATO, NON LEGATO, TENUTO, PORTAMENTO, MARKATO.





Barmoq texnikasi

Klarnetda qo‘l va barmoqlarning to‘g‘ri holatda turishi, cholg‘uni to‘g‘ri ushlashi, ijrochilik texnikasini rivojlantirishining asosidan biri. Klarnetda ijro paytida barmoq va qo‘l muskullari tarang bo‘lmasligiga ahamiyat berish zarur. Barmoqlar teshikchalar va klapanlar ustida erkin holatda turishi kerak. Barmoqlarni teshiklarni ochib yopganda juda baland ko‘tarmasdan bir tekisda harakat qilinishiga ahamiyat berish lozim. T.Byom tizimidagi klarnetlarda jimjiloq barmoqlarni harakatiga alohida e‘tibor berish kerak, chunki ularning har biri uch-to‘rt klapanlarni harakatga keltiradi. Bu borada klarnetni jimjiloq barmoq applikaturasidan to‘g‘ri foydalanish va mahsus mashqlarni ijro etish tavsiya qilinadi. Klarnetda barmoq texnikasini va umuman ijrochilik mahoratini rivojlantirishda, muntazam ravishda gamma, arpedjio, septakordlar, mahsus mashqlar va etyudlar ijrosiga asoslangan ravishdagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Major va minor gammalarini o‘rganishda – ularni avval sekin tempda, keyin o‘rta va nihoyat tez tempda ijro etish tavsiya qilinadi. Gammalarni ritm jihatdan bir tekisda ijro etishga katta ahamiyat berish kerak.

Boshlang‘ich mashqlar va gammalar

Mashqlar – o‘quvchining musiqa cholg‘usida o‘rganayotgan birinchi o‘quv ko‘nikmalari bo‘lib, unda o‘quvchi cholg‘uni to‘g‘ri ushlashni, barmoqlarni to‘g‘ri harakatini, tovush chiqarishni, lab apparatini to‘g‘ri qo‘yishni o‘rganadi. Boshlang‘ich mashqlarda o‘quvchi shuningdaktakt o‘lchovi, birinchi shtrixlar detashe, legato va takt chizigi ustiga qo‘yilgan nafas olish belgilari bilan tanishadilar.

Birinchi mashg‘ulotlardan boshlab o‘quvchilarga klarnetda to‘g‘gri va qulay applikaturani qo‘llash usullarini tushuntirib, amalda ko‘rsatib berish kerak.

Qo'yidagi mashqlar va gammalarni ijro etishda, notalarni ustiga qo'yilgan belgi va raqamlarga ahamiyat bering.

SHartli belgilar:

- O' – o'ng qo'l (правая рука)
- Ch – chap qo'l (левая рука)
- 2 – ikkinchi barmoq (второй палец)
- 4 – to'rtinchi barmoq (четвёртый палец)
- V – nafas olish belgisi (дыхание)

Barmoq applikaturasini o'zlashtirish uchun mashqlar

Birinchi mashg'ulotlardan boshlab o'qituvchi o'quvchiga klarnetda to'g'ri applikaturani qo'llash usullarini o'rgatishi lozim.


Bu maxsus mashqlar muallif tomonidan fransuz tizimidagi klarnetni o'zlashtirish uchun yozilgan. Fransuz tizimidagi klarnetlarda kichik oktavadagi Mi, Fa, Fa#, Sol'#, birinchi oktavadagi Si, ikkinchi oktavadagi Do, Do#, Re# tovushlari alohida ikki xil usulda, o'ng qo'lning jimjiloq barmoqlari va chap qo'lning jimjiloq barmoqlari bilan olinadi. Mashqlar o'ng va chap qo'l applikaturasini o'zlashtirish uchun mo'ljallangan. Mashqlarda notalarni ustiga qo'yilgan raqamlar ko'rsatilgan.

Kichik oktavadagi "Si" tovushi, ikkinchi oktavadagi "Fa#" tovushlari asosan o'ng qo'lning uchinchi barmog'i bilan olinadi. Agar "Si bemol" dan keyin "Si bekar", "Fa" dan keyin "Fa#", uchinchi oktavadagi "Re" dan keyin "Mi bemol" notalari yozilgan bo'lsa, unda bu tovushlarni ikkinchi va uchinchi teshikchani orasiga joylashgan klapani 4-chi barmoq bilan ochish yo'li orqali olinadi. Birinchi oktavadagi "Fa#" tovushi asosan chap qo'lni ikkinchi barmog'i bilan olinadi. Ko'p hollarda "Fa#" tovushini o'ng qo'lning 2-chi barmog'i bilan klarnetning yon tomonida joylashgan ikkita klapanlarni ochib ijro etish tavsiya qilinadi. YUqorida keltirilgan tavsiyalar klarnetda gammalarni, mashqlarni, etyud va musiqa asarlarini, ayniqsa xromatik gammalarni o'rganishda, ularni ritm jihatdan bir tikisda ijro etishda yordam beradi.


Boshlangich mashqlar

B.Salixov.


1



2




3



Musical notation on ten staves. The first four staves are in common time (C) and contain eighth-note patterns. The fifth staff is in 2/4 time and contains eighth-note patterns. The sixth staff is in common time (C) and contains eighth-note patterns. The seventh, eighth, ninth, and tenth staves are in G major (one sharp) and contain eighth-note patterns. The page is numbered 4 at the top and 20 at the bottom.


7



8




9





O'ng va chap qo'lining jimjiloq barmoqlari uchun mashqlar



3

O' O' O' O'

Ch Ch Ch Ch

O' O' 4

Ch Ch O' Ch 5 Ch Ch O'

Ch Ch O' Ch O' O'

Ch O' Ch 6 Ch O'


O' Ch O' Ch O'

O'ng qo'lning to'rtinchi (4) barmog'i uchun mashqlar


7




8



9




10



O'ng qo'lning ikkinchi (2) barmog'i uchun mashqlar

11




12



CHap qo'l uchun mashqlar

13



14




15



CHap va o'ng qo'lning jimjiloq barmoqlari uchun mashqlar

16



**Ikkinchi va uchinchi aktavada to'rtinchi (4) barmoq uchun
mashqlar**
17

Exercise 17 consists of five staves of music. The first staff is in the second octave (C4 to C5) and the remaining four staves are in the third octave (C5 to C6). The exercise is in C major, 4/4 time, and focuses on the 4th finger. It features a variety of intervals, including whole, half, and quarter notes, as well as slurs and ties. The first staff begins with a whole note C4, followed by a half note D4, a quarter note E4, and a quarter note F4. The second staff continues with a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a quarter note C5. The third staff begins with a half note C5, a quarter note D5, a quarter note E5, and a quarter note F5. The fourth staff continues with a half note G5, a quarter note A5, a quarter note B5, and a quarter note C6. The fifth staff begins with a half note C6, a quarter note B5, a quarter note A5, and a quarter note G5. The exercise concludes with a whole note C5.

Exercise 18 consists of three staves of music. The first staff is in the second octave (C4 to C5) and the remaining two staves are in the third octave (C5 to C6). The exercise is in C major, 4/4 time, and focuses on the 4th finger. It features a variety of intervals, including whole, half, and quarter notes, as well as slurs and ties. The first staff begins with a whole note C4, followed by a half note D4, a quarter note E4, and a quarter note F4. The second staff continues with a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a quarter note C5. The third staff begins with a half note C5, a quarter note D5, a quarter note E5, and a quarter note F5. The exercise concludes with a whole note C5.

Exercise 19 consists of four staves of music. The first staff is in the second octave (C4 to C5) and the remaining three staves are in the third octave (C5 to C6). The exercise is in C major, 4/4 time, and focuses on the 4th finger. It features a variety of intervals, including whole, half, and quarter notes, as well as slurs and ties. The first staff begins with a whole note C4, followed by a half note D4, a quarter note E4, and a quarter note F4. The second staff continues with a half note G4, a quarter note A4, a quarter note B4, and a quarter note C5. The third staff begins with a half note C5, a quarter note D5, a quarter note E5, and a quarter note F5. The fourth staff continues with a half note G5, a quarter note A5, a quarter note B5, and a quarter note C6. The exercise concludes with a whole note C5.

Gammalar

Sol-major



Fa-major



Do-major





Si β - major



Re-major



Lya-minor



Mi-minor



Re-minor



Sol-minor



Si-minor



Mustaqil mashgʻulotlar

Oʻqish jarayonida oʻquvchilarni ijrochilik darajasi va mahoratini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishish uchun, oʻquvchining izchillik bilan mustaqil ravishda mashgʻulotlarni tashkil qilishi katta ahamiyatga ega.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga oʻz kasbiga qiziqish oʻygʻotish, har kuni muntazam ravishda mashq qilish, qunt va tirishqoqlik bilan qiyinchiliklarni bartaraf qilish hislatlarini va faqat mehnat orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ularga singdirishi kerak.

Tajriba shuni koʻrsatayaptiki, oʻquvchi har kuni muntazam ravishda mustaqil mashgʻulotlar uchun 4-6 soat vaqt ajratgan holdagina yaxshi natijalarga erishish mumkindir.

Bu soatlarni taxminan qoʻyidagicha taqsimlash maqsadga muvofikdir:

Davom etadigan tovushlarni mashqi – 20-30 daqiqa;

Gammalar ustida ishlash 1-1,5 soat;

Etyudlar ustida ishlash 1 soat

Musiqiy asarlarni ustida ishlash 2-3 soat;

Bu mashgʻulotlarni ikkiga boʻlish mumkin:

Ertalab 2-3 soat, kechqurun 2-3 soat.

Mashgʻulotlarni boshlashda davom etadigan tovushlarni ijro etishdan maqsad – ijrochilik apparatini (lab, nafas) ishchi holatga keltirishdan iborat. Davom etadigan tovushlarni pastgi registrdan boshlab yuqori registrgacha, hamda intervalda ijro etish tavsiya qilinadi.

Gamma, arpedjio va septakkordlarning ijrosi o'quvchining texnik mahoratini rivojlantirish vositalaridan biri.

Gammalarni har kuni quyidagi jadval asosida o'rganish mumkin.

Masalan :

Birinchi kun–1 belgili gammalar (fa major - re minor – sol' major –mi minor)

Ikkinchi kun–2 belgili gammalar (si ' major – sol' minor; re major– si minor)

Uchinchi kun – 3 belgili gammalar (mi ' major– do minor, lya major – fa# minor)

To'rtinchi kun–4 belgili gammalar (lya ' major– fa minor, mi major– do# minor)

Beshinchi kun–5 belgili gammalar(re ' major–si ' minor–si major-sol'#minor)

Oltinchi kun - 6 belgili gamma (fa# major- re# minor)

Etyudlarni o'rganish, ular ustida ishlash ham o'quvchining ijrochilik texnikasini va mahoratini rivojlantirishda katta hissa qo'shadi.

Mashg'ulotlar jarayonida har-xil shtrixlarda yozilgan, osonidan boshlab, bosqichma-bosqich murakkab etyudlarni o'rganshi tavsiya etiladi.

Etyud va musiqiy asarlarni o'rganishda, avval ularni sekin tempda ijro etish lozim, texnik jihatdan qiyin bo'lgan jummalarni har-xil shtrixlarda ijro etish tavsiya qilinadi va ularni puxta o'rgangandan so'ng, muallifning asardagi ko'rsatmalariga rioya qilgan holda ijro qilish kerak.

15 ta etyud

B.Salixov

1.

Allegretto

2.

Moderato

mf *f* *mf* rit

3.

Allegretto

mf

4.

Allegro

mf

4

7

10

13

16

f

p

mf

5.

Moderato

f

6

11

15

Andante

mf dolce

8

16

22

7.

Allegro

f

4

7

10

14

17

mf

21

25

p

8.

Allegretto

mf

3

6

8

9.

Andante

mf

3

5

8

10

12

f

rit.

10.

Moderato

5

9

13

16

mf

11.

Moderato

mf

p

f

mf

12.

Andantino

Exercise 12 is in 8/8 time and consists of five staves. The first staff begins with a piano (*p*) dynamic and features a series of eighth-note patterns, some beamed in groups of four. The second staff includes a mezzo-forte (*mf*) dynamic marking and a crescendo hairpin. The third staff continues the eighth-note patterns. The fourth and fifth staves show more complex phrasing with slurs and ties. A decrescendo hairpin is located below the fifth staff.

13.

Moderato

Exercise 13 is in common time (C) and consists of four staves. The first staff features a series of eighth-note patterns with a crescendo hairpin. The second staff continues the eighth-note patterns. The third staff includes a decrescendo hairpin. The fourth staff concludes the exercise with a final melodic phrase.

14.

Allegretto

Exercise 14 is an Allegretto in 2/4 time, key of D major. It consists of four staves of music. The first staff contains measures 1-4, the second staff measures 5-8, the third staff measures 9-12, and the fourth staff measures 13-16. The piece features a continuous eighth-note pattern in the right hand and a more complex eighth-note pattern in the left hand. There are two accents (V) in the first staff and two in the second staff.

15.

Moderato

Exercise 15 is a Moderato in 2/4 time, key of D major. It consists of four staves of music. The first staff contains measures 1-4, the second staff measures 5-8, the third staff measures 9-12, and the fourth staff measures 13-16. The piece features a continuous eighth-note pattern in the right hand and a more complex eighth-note pattern in the left hand. There are two accents (V) in the first staff and two in the second staff.

II bolim

Ijrochilik amaliyoti

Ijrochilik amaliyoti bevosita mutaxassislik fani bilan bog'lik. Chunki talabalar butun o'qish jarayonida mutaxassislik sinfida olgan bilimlari va ijrochilik ko'nikmalarini sahnada konsert dasturlari bilan chiqishlari orqali namoyish qiladilar. Konservatoriyada ijrochilik amaliyoti bakalavriat yo'nalishi bo'yicha 1-4 kurslarida o'zlashtiriladi. Ijrochilik amaliyotining maqsad va vazifalari – talabalarni mustaqil ravishda konsert ijrochilik faoliyatiga, tajriba va mahoratlarini olttirishga va ijrochilik repertuarini tayyorlashda ko'mak berishdan iborat. Talabalarni yakkaxon ijrochilikka tarbiyalash, bu murakkab jarayon hisoblanib, o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ular barcha ijrochilik vositalari – musiqiy – badiiy, texnikaviy mahoratlarini mukammal egallashlari kerak. Talabalar o'zlarini sahnaga chiqishlariga ruhiy jihatdan tayyorlashlari, sahnada o'zlarini erkin tuta bilishlari, qo'rquv va hayajonni engishni o'rganishlari lozim. Bular o'quv jarayoni paytida tajriba va ijrochilik amaliyoti orqali amalga oshiriladi.


Talabalarni ijrochilik mahoratlarini oshirishda, konsert ijro repertuarini o'zlashtirishda, o'quv rejada belgilangan sinovlar va akadem konsertlar, shuningdek sinf konsertlari, kompozitorlar ijodiga bag'ishlangan kechalar, bayram konsertlari hamda Respublika va Xalqaro tanlov-festivallarda qatnashishlari ularga sahnada ijrochilik faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda katta yordam beradi.

MELIZMLAR

CHolg'u ijrochiligi amaliyotida doimo uchrab turadigan, musiqa asarlarida maxsus shartli belgilar bilan ifodalangan ohanglarni **melizmlar (bezaklar)** deyiladi. Bu melizmlarni (bezaklarni) amalda ijro etishdan oldin ularni batafsil o'rganib, ijro echimini to'g'ri ifodalash kerak. Tajriba ko'rsatyaptiki, ko'p hollarda ijrochilar bu bezaklarni to'g'ri tushunmaganligi sababli, ularni taxminan ijro qilishmoqda.

Melizmlar turlari:

Forshlag-
Mordent-
Gruppetto-
Trel -



1. **Qisqa forshlag** (qiya chizilgan) - bitta va bir nechta tovushlardan tuzilgan bo'lib, mayda notalar bilan ifodalanadi:

Yoziladi a) 

Ijro etiladi b) 


a) 

b) 

a) 


b) 

a) 

b) 

2. **Mordent** - Uchta tovushdan tuzilgan: asosiy, yordamchi va yana asosiy.
Mordentni turlari: oddiy, chizilgan va uzun (ikkitali).

a) **Oddiy mordentda** - yuqori yordamchi tovush olinadi :

Yoziladi 

Ijro etiladi 

b) **CHizilgan mordentda** - pastgi yordamchi tovush olinadi :

Yoziladi 

Ijro etiladi 

Al'terasiya belgilari (#, β) oddiy mordentni ustiga qo'yilgan bo'lsa, u yuqori yordamchi tovushga taalluqli:

Yoziladi

Ijro etiladi

Al'terasiya belgilari (#, b) chizilgan mordentni pastiga qo'yilgan bo'lsa, u pastgi yordamchi tovushga taalluqli:

Yoziladi

Ijro etiladi

Uzun mordent (ikkitali) beshta tovushdan iborat:

Yoziladi

Ijro etiladi

Gruppetto – yuqori yoki pastgi yordamchi va asosiy tovushlardan tuzilgan bo'lib, ikki turdan iborat : to'rt tovushli va besh tovushli.

To'rt tovushli gruppettoni ijrosi yuqori yordamchi tovushdan boshlanadi:

Yoziladi

Ijro etiladi

Besh tovushli **gruppetto** – asosiy, yuqori yordamchi, asosiy, pastgi yordamchi va yana asosiy tovushlardan iborat :

Yoziladi

Ijro etiladi

Gruppettoni ustiga qo'yilgan al'terasiya belgilari yuqori yordamchi notaga taalluqli, gruppettoni pastiga qo'yilgan al'terasiya belgilari pastgi yordamchi notaga taalluqli:

Yoziladi

Ijro etiladi



Gruppetto belgisi ikki notaning orasiga qo'yilgan bo'lsa, ijro asosiy hisoblangan birinchi tovushdan boshlanadi:

a)

b)

a)

b)

a)

b)


a)

b)

Klassik musiqa asarlarida oʻrtasidan chizilgan **gruppetto** qoʻllanilgan. Bu gruppettoni ijrosi pastgi yordamchi tovushdan boshlanadi :



Trel - 2 ta asosiy va yuqori yordamchi tovushlarning tez va birtekisda olmashinuvi asosida tuziladi :




Zamonaviy ijrochilik usullari

Kompozitorlar tomonidan yaratilayotgan zamonaviy musiqa asarlari ijrochilardan oʻziga hos zamonaviy ijrochilik usullarini mukammal egallashni talab qiladi.

Klarnet boy ijro imkoniyatlarga ega boʻlgan cholgʻulardan hisoblanib, unda musiqa asarlarida qoʻllanadigan deyarli barcha zamonaviy usullarni ijro etish mumkin.

Bu usullar : Glissando, Frullato va qoʻsh stakkato (dvoynoe stakkato).

Glissando ijro usuli asosida tovushdan - tovushga sirgʻalish orqali, barmoqlarning tovush teshiklarining ustidan asta-sekin koʻtarilishi natijasida teshiklarni ketma-ket ochilishi va labning oʻziga hos harakati bilan amalga oshiriladi :



Frullato ijro usuli asosan tilni tebranishi va nafas chiqarish jarayonida “r” harfini qaytarilishi natijasida amalga oshiriladi : “tr-r-r-r”.

Frullato ijro usulini o‘rganishda avval birinchi oktavadagi tovushlardan boshlab, keyin pastgi va yuqori oktavadagi tovushlarga o‘tish mumkin :



Klarnet uchun murakkab ijrochilik usullaridan biri, bu qo‘sh stakkato (dvoynoe stakkato). Fleyta, goboy, fagot cholg‘ularida keng qo‘llanib kelinayotgan qo‘sh stakkato, klarnet ijrochiligida endi o‘zlashtirilmoqda.

Klarnetda qo‘llanilayotgan oddiy stakkatoning imkoniyatlari ma’lumki biroz cheklangan. SHu bois bu kamchilikni bartaraf etish uchun klarnetda qo‘sh stakkato ijro usulini o‘rganib olish, ijrochilar oldida turgan eng murakkab masalalardan biri.

Klarnetda qo‘sh stakkatoni ijro etish asosida t-k-t-k, tu-ku-tu-ku, tovushlarni til uchida galma-galdan talaffuz qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu usuldagi birinchi mashqlarni ijro etish uchun, birinchi oktavadagi “sol” tovushidan boshlash tavsiya qilinadi :



t k t k t k t k t k t k t k t k t k t k t k

Bu mashqni talaffuzi bir tekisda chiqishi uchun ko‘p marotaba qaytarish tavsiya etiladi. Keyin quyidagi tovushlarni ijrosiga o‘tish mumkin :



t k t k t k t k t k t k t k t k t k t k

Mundarija	
Muallifdan	3
I-bo'lim	
Pedagogik amaliyot-maqсад va vazifalar	4
Pedagogik amaliyotni tashkil etish	5
Klarnet cholg'usining rivojlanish tarixi	7
Klarnet uchun pedagogik amaliyodan o'quv-uslubiy tavsiyalar	9
Boshlang'ich mashqlar va gammalar	17
Mustaqil mashqlar	29
B.Salihov 15 ta etyud	30
II bo'lim	
Ijrochilik amaliyoti	37
Zamonaviy ijrochilik usullari	41
Ijrochilik amaliyoti uchun musiqiy asarlar namunalari	
I.Demar-Rondo-Kapris	45
M.Yos –Allemanda	46
I.Burgmyuler-Tarantella	47
S.Kyui-Sharqona kuy	48
I.Brams-Vengercha raqs	49
V.Mosart-Romans	51
N.Rimskiy-Korsakov-Shamaxon malikasi qo'shig'i	52
K.Cherni-Romans	54
V.Mosart-Adajio	55
M.Ravel-Xabanera	57
S.Rouz-Etyudlar	58
M.Bafoev-Lirik xikoya	68
S.Boboev-Rapsodiya	69
P.Xaliqov-Skerso	72
P.Xaliqov-Konsertino	74
A.Xoshimov-Afsona	78
A.Ergashev-SHarq kaprichchiosi	81
E.Bozza-Klaribel'	87
A.Messaje-Konkursga solo	91
M.Dollon-SHarq fantaziyasi	96
Klavirlar	
I.Demar-Rondo-Kapris	100
M.Yos –Allemanda	102
I.Burgmyuler-Tarantella	105
S.Kyui-Sharqona kuy	108
I.Brams-Vengercha raqs	111
V.Mosart-Romans	116

N.Rimskiy-Korsakov-Shamaxon malikasi qo‘shig‘i	120
K.Cherni-Romans	126
V.Mosart-Adajio	129
M.Ravel-Xabanera	135
E.Bozza-Klaribel’	138
A.Messaje-Konkursga solo	149
M.Dollon-SHarq fantaziyasi	159